


SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi 2024- yil yanvar-iyun oylari




**Tel.: 67-236-70-00
www.sirstat.uz**

Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9 257,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (209 187,3 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (10 083,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 4 706,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 50,9 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Shirin shahri (43,8 %), Sirdaryo tumani (18,9 %), Boyovut tumani (8,5 %), Guliston shahri (7,1 %) hamda Yangiyer shahri (5,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Boyovut tumanida (116,7 %), Sayxunobod tumanida (109,4 %) hamda Yangiyer shahrida (108,5 %) kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,9 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,4 % ga to'g'ri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 706,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 50,9 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,5 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 4,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali –3,6 % (3,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,9 % (20,5 %), quyi texnologiyali 64,0 % (71,7 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,9% (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 2,0 m), asosiy farmatsevtik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi- 5,5 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,5 %) hamda boshqa nometal mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,9 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,0 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,7 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,3 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 11,8 ming tonna paxta tolasi (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 32,4 % ga kamaygan), 8,3 ming tonna kalava ip (38,7 % ga kamaygan), 6,7 ming tonna kepak mahsulotlari (9,2 % ga kamaygan) hamda 16,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (14,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	2205,0	400,0	-1805
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	846,5	803,9	-42,6
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	9,3	11,5	2,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	18,6	16,0	- 2,6
Paxta tolasi, ming t.	17,5	11,8	-5,7

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 107,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,8 % tashkil qilib, shundan ishlab chiqarish hajmi 341,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keladi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 29,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,9 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1 407,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,4 martani tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 47,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,9 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 1 030,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 111,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 178,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 50,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 16,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,2 % ni, fizik hajm indeksi 134,3 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 431,5 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblari uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 22,1 % ga ko'payib ishlab chiqarish hajmi 150,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.



2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,0 martaga ko'payib ishlab chiqarish hajmi 44,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 453,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 124,9 % ni) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 126,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 75,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	8 490,1	7 017,6	-1 472,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	58,2	74,3	16,1

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,0 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ga) to'g'ri keldi.



*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarda 23,2 % ga ko'paydi. Shuningdek, suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 32,0 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-may	2024- yil yanvar-may	Farqi +/-
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd. so'm	7,4	10,9	3,5

Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln. so'm	21,7	47,2	25,5
---	------	------	------





(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 174,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,3 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 133,1 % ni tashkil etgan.



● mlrd. so'mda *Ulushi, % da*

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 50 ta loyiha bo'yicha 902,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 15,8 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 226 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

